

UZBEKISTAN
LANGUAGE & CULTURE
O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

Tarjimashunoslik
va qiyosiy
adabiyotshunoslik

2022 Vol. 1 (3)

www.uzltscls.tsuull.uz

Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balogʻa» asarida sheʼriy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi	110
Aidaxon Bumatova	
Poetik tarjima transformatsiyasi.....	118
Chorshami Hayitov	
Realiyalar tarjimasi muammolari.....	126
Zebiniso Bekmuradova	
Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining oʻzbekcha tarjimalari	132
Ilhom Xolmoʻminov	
Folklor asarlar tarjimasiga doir mulohazalar	137
Азиза Шералиева	
Перевод безэквивалентной лексики с английского на узбекский язык	142

Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada hozirgi kungacha maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'rganilgan, ayniqsa o'zbek-fransuz tillari kesimida qiyosiy asnoda alohida tadqiqot olib borilmagan amaliy ritorik figuralaridan biri sifatida xiazm konstruksiyasi haqida gap boradi. Badiiy nutqda qo'llanuvchi uslubiy bo'yoq va qator vazifalarni bajaruvchi, barcha tillarga xos bo'lgan xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli fransuzcha va o'zbekcha misollar tarjimalari asosida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *xiazm, folklor matnlar, aforizmlar, maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar, stilistik figura, ritorik figuralar, makromatn,*

Kirish

Sintaksisning hozirgi kungacha maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'rganilgan, ayniqsa o'zbek-fransuz tillari kesimida qiyosiy asnoda alohida tadqiqot olib borilmagan amaliy ritorik figuralaridan biri sifatida xiazm konstruksiyasini qo'rqmay aytishimiz mumkin.

Ushbu figura haqida yaxlit ta'rif sifatida shunday deyish mumkin: "Mazmuni jihatdan farqli bo'lgan ikki jumla shunday ketma-ketlikda qo'yiladiki, birinчисiga qarama-qarshi bo'lgan ikkinchi jumla birinчисidan kelib chiqadi, masalan: *yashash uchun yeyish kerak, yeyish uchun yashash emas*". Bunday almashish antik dunyo olimlari tomonidan antimetabola yoki kommutatsiya deb nomlangan.

"Qisqa adabiyot ensiklopediyasi"da xiazm qo'shish figuralaridan biri sifatida tavsiflangan va sintaksik parallelizmning bir turi sifatida qaralgan. "Xiazm (grekchadan – χ (xi) grek harfi qo'rinishidagi krestga o'xshash joylashuv) – antitetik (qarshi qo'yish) parallelizmning stilistik figurasidir: ikkita parallel bo'laklarning qismlari ularda quyidagi ketma-ketlikda joylashadi: A V = V1 A1 (*Do'stga dushman bo'lish oson, dushmanga do'st bo'lish qiyin*).

Zamonaviy lingvistikada E.M. Beregovskayaning xiazmatik konstruksiyalarni ingliz, rus, nemis, ispan va qisman fransuz tillarida tadqiq qilgan alohida ishlarini; A.A. Tereshenkoning ingliz xiazmlariga bag'ishlangan

¹ Bekmuradova Zebiniso Erkinovna – o'qituvchi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: bekmurodovazebo@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4314-1009

Iqtibos uchun: Bekmuradova Z.E. 2022. "Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari". O'zbekiston: til va madaniyat. 1 (3): 132-136.

maqolalarini; V.S. Solovyovning ob'ekti bo'lib, A. Blokning ijodida xiazmlar xizmat qilagan dissertatsiyasini, shuningdek, o'zbek olimlaridan professor I.K.Mirzaevning lingvopoetika masalalariga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida "xiazm chap tomon qismidagi so'zlar teskari tartibda joylashtirilgan binar struktura sifatida tushuniladi" [2], deya ta'kidlasa, O.X.Mamaziyaev esa o'zining nomzodlik dissertatsiyasida "Xiazm faqat qo'shma gapni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita bo'lib, unda qo'shma gap birinchi komponentdagi gap bo'laklarining o'rni (tartibi) ikkinchi komponent bo'laklari joylashuviga butunlay teskari holda bo'lishi talab etiladi..." degan ta'rifni beradi [3:20],.

J.Dyubuaning qisqa lingvistik terminlar lug'atidagi qisqa izohda xiazm antitezani yuzaga keltiruvchi yoki parallel o'rnatuvchi jumlaning ikkita simmetrik qismlari inversiyasi sifatida tasvirlanadi.

Xiazm nafaqat mikro va makromatnlarda, balki maqollar, sanoqlar, tez aytishlarda uchratishimiz mumkin.

Bolalar folkloriga o'xshash «o'yin xiazmlari», shuningdek, bolalar she'riyatida ham paydo bo'ladi: «Pouquoi ne suis-je pas blanc?» / Se lamente le mouton noir - / «Pourquoi ne suis-je donc pas noir?» / Se lamente le mouton blanc. / "Nega men oq emasman? / Qora qo'y yig'laydi - / "Unda nega men qora emasman?" / Oq qo'y yig'laydi. / Qui a les yeux bruns, les veut bleus : Qui a les yeux bleus, les veut bruns. Kimning jigarrang ko'zlari bor, ularni ko'k xohlaydi : Kim ko'k ko'zlari bor, ularni jigarrang xohlaydi. (Carême).

Bu hazilomuz fransuz she'rida o'yinqaroq xiazm "shakllantirish" darajasigacha yetkazilgan, chunonchi xiazmning komponentlari sifatida so'zlar ma'nosidan mahrum bo'lmagan komplekslar (shuningdek, o'zbek tiliga tarjima qilinganda ham ma'nosidan deyarli mahrum bo'lmagan so'zlar), chunki bu komplekslarda grammatik ma'no bor. Kitobiy tilda bunday xiazmik o'yinning aksi - yumoristik rasmga yozilgan yozuvlar bo'ladi. Masalan:

- *Itinigiz o'g'limni tishlab olibdi. Ma'naviy zararni qoplashingizni talab qilaman!*

- *Mayli, unda o'g'lingiz ham itimni tishlasin.*

Ba'zida bunday transformatsiya butun boshli gapga yumoristik xarakter beradi, masalan restoratorning reklamasida: Si vous ne voulez pas vivre pour manger, mangez au moins pour me faire vivre. Ovqatlanish uchun yashashni xohlamasangiz, hech bo'lmaganda meni yashashim uchun ovqatlaning. Bu yumoristik xarakterli xiazm tarjimada ko'proq Yeyish uchun yashash emas, yashash uchun yeyish kerak degan o'zbek maqoliga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki tarjima jarayonida na ma'no va nainki xiazmatik konstuksiya buzilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Maqollarda

- A jeune homme - vieux cheval, à cheval jeune – vieil homme.

Les bons comptes font les bons amis – Hisobli do'st ayrilmas. Yuqoridagi fransuz maqolini tarjima qilish jarayonida, ushbu fransuzcha maqolning aynan o'zbekcha ekvivalenti borligini va ushbu muqobilda ma'no saqlanganligini, ammo xiazmning butunlay yo'qolib ketganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday ta'sir bilan yumorist Alfons Alle maqolni transformatsiya qiladi: *Partir, c'est mourir un peu... Mais mourir c'est partir beaucoup..* Bu usulda paydo bo'lgan xiazmlarda ma'no orttirilishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xiazm o'ziga xos bir butun matn bo'lishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, kelib chiqishi turli xil bo'lgan maqollarda jamoaviy hayot tajribasini to'g'ri va lo'nda ifoda etishiga taalluqlidir: *Burun tortildi - dum tiqildi, dum tortildi - burun tiqildi. Yaxshi odam qo'yga qarshi, lekin qo'y yaxshi odamga qarshi. Vin sur lait, bienfait : lait sur vin, venin. Bir kishi ming kishi uchun, Ming kishi bir kishi uchun. Maqollarda xiazmik tuzilish juda barqaror. U turli tillarda o'xshash maqollarni qayd etadi.*

Aforizmlarda

Umuman olganda, voqelikning individual tomonlarini aks ettiruvchi va individual hayotiy tajriba natijasi bo'lgan aforizmlarni ham o'z-o'zidan yetarli yaxlit matnlar deb hisoblash mumkin.

Aforizmga moyil fikr, albatta, xiazmning tayanch nuqtasida o'zini sinab ko'radi. Taniqli aforistika ustalari Laroshfuko, Monten, Shamfor, Shou, Uayld, Klyuchevskiy va boshqalar ko'pincha o'z maksimlarini xiazmik shaklda tuzadilar:

- En général, l'homme mange son repas, mais parfois le repas mange l'homme - *Odatda, odam taomni yeydi, lekin taom ham ba'zida odamni yeyishi mumkin.*

Il ne peut pas exister de bonne influence. Toute influence est immorale - immorale du point de vue scientifique.

- La société est composée de deux grandes classes : ceux qui ont plus de dîners que d'appétit que de dîners. (Chamfort).

O'z-o'zini ta'minlaydigan xiazm orasida hazil miniatyuralar ham uchray turadi.

Muvaffaqiyat asosiy maqsadingiz ko'z oldingizda turganda keladi
Maqsadingiz ko'zdan nari ketishi bilan muvaffaqiyat ham ketadi.

Tez aytishlarda

- Le cheval d'Avalac avala l'eau du lac, l'eau du lac avala le cheval d'Avalac.

- *Avalakning oti ko'l suvini yutib yubordi, ko'l suvi Avalac otini yutib yubordi.*

- Quatre plats plats dans quatre plats creux, quatre plats creux dans quatre plats plats. -*To'rtta chuqur idishda to'rtta tekis idish, to'rtta chuqur idishda to'rtta chuqur idish.*

- Qu'a bu l'âne au lac? L'âne au lac a bu l'eau -*Eshak ko'lda nima ichdi? Ko'l bo'yidagi eshak suv ichdi*

- La roue sur la rue roule, la rue sous la roue reste - *Ko'chada g'ildirak aylanadi, g'ildirak ostidagi ko'cha qoladi*
- *Kitoblar kitobxonlarga kerak, kitobxonlarga kitoblar kerak.*
- *O'roq o'xshar so'roqqa, so'roq o'xshar o'roqqa.*
- *Tovuq sovuqda sovuqotadimi, sovuqda tovuq sovuqotadimi.*
- *Oq choynakka ko'k qopqoq ko'k choynakka oq qopqoq*

Topishmoqlarda

Hier j'étais demain, mais demain, je serai hier (*Aujourd'hui*). Kecha men erta edim, lekin ertaga kecha bo'laman (bugun) Ushbu topishmoqni tarjima qilish jarayonida shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, bu xiazmatik kontuksiyada na ma'no, na shakl va na xiazmatik konstuksiya o'z o'rnini yo'qotmagan. Anhor bo'yida uch qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtdan yo'g'on shoxi bor, har bir yo'g'on shoxida beshtadan novda bor. Har bir novdada yetti donadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta dona olma bor?

Qu'est-ce que des enfants peuvent donner à leurs parents que leurs parents ne peuvent pas se procurer eux-mêmes ? Des petits-enfants.

David et Victoria possèdent chacun un certain nombre de pommes. Si David donne une pomme à Victoria, alors les deux auront le même nombre de pommes. Si Victoria donne une pomme à David, celui-ci aura alors deux fois plus de pommes

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki xiazm hodisasini o'zbek va fransuz topishmoqlarida ham uchratishimiz mumkin. Zero bu xiazmatik konstuksiyalar fransuz va o'zbek folklor na'munalarini ohangdorligini va stilistik bo'yoqdorligini yanada oshirib, so'zlovchining grammatikasiga xos bo'lgan umumiy mexanizmning bir qismida, hattoki xiazm misollariga duch kelganda oddiy o'quvchining estetik qoniqishi, shuningdek, matnning yoki she'riy asarning jozibadorligini, ohangdorligini oshirishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Квятковский, А.П. 1966. Поэтический словарь. М.
- Мирзаев, И.К. 1992. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Дисс.д-ра филол.наук. – Т.
- Мамазияев, О.Х. 2004. O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol. fan.nom.diss. Farg'ona
- Винокур, Т.Г. 1980. Закономерности стилистического использования языков единиц. Автореф.дисс.д-ра.филол.наук. М.
- Omonturdiyev, J. 1971. Sintaktik takrorlar. // O'zbek tili va adabiyoti.

Uzbek translations of French folklore texts based on the Chiasma construction

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstract

This article discusses the construction of chiasm as one of the practical rhetorical figures that has been little studied to date as an object of special research, especially in the Uzbek-French section, which has not been studied separately. Uzbek translations of French folklore texts based on the stylistic structure of the chiasm, which is used in artistic speech and performs a number of functions, are considered. Conclusions were also made based on translations of various French and Uzbek examples.

Keywords: *chiasm, folklore texts, aphorisms, proverbs, sayings, riddles, stylistic figures, rhetorical figures, macromatn*

References:

- Kvyatkovskiy, A.P. 1966. Poeticheskii slovar. M.
Mirzaev, I.K. 1992. Problemy lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta (na materiale sovremennoy uzbekskoy poezii). Diss.d-ra filol.nauk. – T.
Mamaziyayev, O.X. 2004. O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol. fan.nom.diss. Farg'ona
Vinokur, T.G. 1980. Zakonomernosti stilisticheskogo ispolzovaniya yazykov yedinis. Aftoref.diss.d-ra.filol.nauk. M.
Omonturdiyev, J. 1971. Sintaktik takrorlar. // O'zbek tili va adabiyoti.

¹ Zebiniso E. Bekmuradova – teacher. Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

E-mail: bekmurodovazebo@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0003-4314-1009

For citation: Bekmuradova Z.E. 2022. "Uzbek translations of French folklore texts based on the Chiasma construction". Uzbekistan: language and culture. 1 (3): 132-136.